

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIVAVIY ISHLAR JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI

Boltayeva Muxayyoxon Lutfullayevna

NamDU Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani,

Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent.

Dadaqo'ziev Muzaffar Raxnomoyevich

NamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Bu maqola oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish modelining ishlab chiqilganligi, tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tizimi va pedagogik texnologiyalarining takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о разработке модели совершенствования механизмов организации и управления процессами учебной работы в высших учебных заведениях, системы совершенствования механизмов организации и управления процессами учебной работы, а также совершенствования педагогических технологий.

Abstract: This article provides information on the development of a model for improving the mechanisms for organizing and managing educational work processes in higher educational institutions, a system for improving the mechanisms for organizing and managing educational work processes, as well as improving pedagogical technologies.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, tarbiyaviy ishlar, Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, o'qitish metodikasi.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, воспитательная работа, практико-ориентированное образование, методика преподавания.

Key words: higher educational institutions, educational work, practice-oriented education, teaching methods.

O'zbekiston taraqqiyotida tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda ijtimoiy tarbiya talabalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya talabalarning ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin.

Dunyo tabiatshunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi. Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahasiyat kab etadi. Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan g'alq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlandi. Shuning uchun ham turli guruh va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash hukmronlik qilgan. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning guruhiy xarakterga ega emasligi isbotlanadi. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy guruh vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tamonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik san'atiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tarbiya jarayonining ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustivorligi muhim hisoblanadi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etishda tarbiyaviy ishlar tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar bevosita mamlakat hayoti, xalq tarbiya tizimi bilan mustahkam bog'langandir. Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etishda shaxsining har tamonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etib va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib talaba shaxsini kamol topishini ta'minlashdir. Bugungi kunda, aynan globallashtirish jarayonlarida yosh avlod tarbiyasiga yanada ma'suliyat bilan yondoshish har birimizning insoniylik burchimizdir. Bunday burchni o'qituvchilar, tarbiyachilar, murabbiylar, ota – onalar his qilishlari va uni kelajak avlodga yetkazishi va singdirishi uchun bunday bilim bilan ular qurollangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bu tushunchaga to'xtalib o'tishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Aynan bu tushunchaga ma'naviyat lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan.

Burch – ma'naviy sohada yuksak mas'uliyat, lafzi halollik, va'daga vafo qilishni; huquqiy sohada qonun hujjatlari, shartnoma, ish bo'yicha yuklangan majburiyatni anglatuvchi tushuncha. Burch haqida gap ketganda bizlar uni inson ma'naviy dunyosining shakllanganligi va uning zamirida ular tomonidan, o'z zimmasida turgan vazifalarni qay darajada bajarganligini ko'rib u orqali anglab olamiz. Bizga manbalardan ma'lumki, burch o'z mazmuniga ko'ra bir qator kategoriyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunday tushunchalar qatoriga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Bular:

- mas'uliyat;
- o'zlikni anglash;
- vijdon;
- xulq;
- odob;

- lavz va h. z.lardir. Burch orqali talabalar o'zlarining ma'naviy qiyofasini sayqallashtirib boradi. Jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi. Talabalarning bir – biriga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Burchni his qilish orqali har bir talabalar doimiy ravishda jamiyat va shaxslar o'rtasidagi mas'uliyat, majburiyat kabi xislatlarini namoyon qiladi. Bu jarayonlarda odamlar oila, ota-ona, Vatan, xalq oldidagi umumiy

burch bilan bir qatorda muayyan shaxsga xos vaʼdaga vafo, oʻz soʻzida turish, obroʻ-eʼtibor va shaʼnini saqlash kabi insoniy fazilat va xislatlarni koʻrsatadi.

Oliy taʼlim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda taʼlim-tarbiya jarayonining qatnashchilari ham qaysidir maʼnoda Vatan, jamiyat va insonlar oldidagi burchlarini his qiladi hamda bu burchlarni ado etib boradi. Misol uchun oʻqituvchilar Vatan, jamiyat oldidagi burchlarini quyidagilarda deb eʼtirof etadi. Bular:

- Vatanparvalik;
- Xalqparvarlik;
- Oilaparvarlik;
- Tabiatparvarlik;
- Zamon bilan hamnafas boʻlish;
- Bilimini orttirib borish;
- Doimiy ravishda oʻz ustida ishlash;
- Bolalarni sevish;
- Bolalarni maʼrifatli qidib tarbiyalash;
- Talabalarni kasbga yoʻllash;
- Talabalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabilar... Har bir professor-

oʻqituvchining shaxslar aro munosabatlarida ham maʼlum bir darajada burchlar namoyon boʻladi. Ular bir - birlari bilan munosabatga kirishar ekan, insoniy fazilatlarini bir - biriga singdirib boradi.

Bular:

- xushfeʼllik;
- odoblilik;
- saxiylik;
- vijdonlilik;
- hayollik;
- ibolilik;
- oriyatlilik;
- lavzi halollik;
- vafodorlik;
- muxabbatli boʻlishni;
- nomusli boʻlish kabilarni;
- ilmlilik;
- oʻquvchilarni oʻz ortidan ergashtira olish qobiliyatini shakllantirish kabilaridir.

Taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilaridan biri sifatida talabalar ham oʻz oʻqituvchilar oldida maʼlum bir burchlarini sidqi dildan ado etishlari uchun oʻqituvchilar jamoasi ularga ham bu xislatlarni doimiy ravishda oʻrgatib, shakllantirib boradi.

Bizning fikrimizcha, burch insonlarning o'zlari oldidagi, Vatan fuqarosi sifatidagi, farzandlar oldidagi otalik, onalik, ota-ona oldidagi farzandlik, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi singari ko'rinishlariga ham ega. Biz pedagoglar ularning har biri to'g'risida nafaqat ma'lumotlar berish balki ularni yosh avlod qalbiga singdirib borishimiz kerak. Bir kun kelib ular bunday burchga to'g'ri kelib qolganlarida dovdirab qolmasdan uni sidqidildan ado etadi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga Konstitusiyamizda belgilab qo'yilgan burchlarni bajarish har birimizning fuqarolik burchimiz ekanligini uzliksiz tushuntirib borish maqsadga muoffiqdir. Ana shundagina o'quvchilar:

- qonunlarga bo'ysinish;
- insonlarning huquq va erkinliklari himoyalash;
- insonlarning sha'nini ko'tarish;
- qadr-qimmatini hurmat qilish;
- xalqning tarixiy meroslarini hurmat qilish;
- madaniy va ma'naviy merosini avaylab-asrash;
- tabiatni sevish uni asrash;
- qonun bilan belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lash;
- Vatanni himoya qilish;
- yaxshi o'qish;
- tarbiyali bo'lish;
- kasb egallash;
- ota – onalarni ardoqlash;
- milliy qadriyatlarni hurmat qilish;
- umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini anglash;
- oilali bo'lish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabilarga oid bilimlarni

egallashi, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi shart. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish shuni ham tushinishi kerakki, bu kabi burchlarni bajarmaslik salbiy oqibatlarga olib keladi. Burch yosh avlodning qalbi va ongida o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, u faqatgini tarbiya jarayonlarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham bugungi kun pedagogikasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'z burchini chuqur anglaydigan, o'ziga nisbatan talabchan, o'zining kuch-qudratiga ishonadigan, bilimini amaliyotda iftixor bilan qo'llay oladigan, o'zining qadrini biladigan, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. O'z xalqi, vatani oldidagi burchni ilmiy asosda anglash uchun har bir inson uning mazmun mohiyatini yaxshi anglashi kerak. Buni tarbiyaviy ishlar jarayonida singdirish samarali natijalar berishini biz yaxshi tushunamiz. Har bir pedagog, yosh avlod bilan ishlash jarayonida, zamon bilan hamnafas bo'lib davlat tomonidan olg'a surilayotgan g'oyalarni yoshlar ongi va qalbiga singdirib borishi uchun bunyodkor g'oyalarning mazmun mohiyatini o'zlari anglab yetgan bo'lishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan xolda shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda olib boriladigan har qanday tarbiyaviy ishni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullar ta'lim – tarbiyaga oid fikrlari, takliflari, qarorlari hamda asarlarini izchil o'rganib borishi ularda tom ma'nodagi yaratuvchanlik fazilatlarini sayqallashtiradi hamda bunyodkorlikka oid bilimlarini oshirib, siyosiy savodxonlik darajasini yuqori pog'onalarga olib chiqadi. Bugungi kunda har bir pedagog shuni anglab yetishi kerakki, bunyodkor g'oyalar bilan bir qatorda buzg'unchi, va yronkor g'oyalar ham insonlarga o'z ta'sir kuchini singdirishga, o'tkazishga harakat qilmoqda. Pedagogik burch esa, yosh avlodni bunyodkorlik shijoatlari bilan shakllantirib, vayronkor kuchlarga nisbatan nafrat tuyg'usida tarbiyalab, o'qimishli, tarbiyali insoni qilib shakllantirishimiz kerakki, ularning o'zlari har – biri o'zlarining sa'yi – harakatlari orqali, ularni chalg'itish mumkin emasligini ko'rsatib borsin. Shuning uchun ham birinchi prezidentimiz o'zining har bir chiqishida, yoshlarga bunyodkor g'oyalarni singdirish orqali ularning kelajagini ta'minlash mumkin degan fikrni olg'a surgan. Bundan ko'zlangan maqsad bitta, u ham buyuk kelajakni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Ta'lim to'g'risida". // Xalq so'zi, 2020 yil 24 sentabr.
2. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi". - T.: 2019.-B. 12.
3. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'.G'ulom". -T.: 2016.
4. Dadaqo'ziev, M. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONLARIGA YANGICHA PRINSIPLARINI JORIY QILISHDA ALLOMALAR PEDAGOGIK ME'ROSI. *Interpretation and Researches*, (3). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2834>
5. Dadaqo'Ziev Muzaffar Raxnomoyevich (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA TALABALAR JAMOASINI TASHKILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 2 (Special Issue 12), 123-127. doi: 10.5281/zenodo.10113018